XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 24-aprel VI-83-84-8-0-K/24 Surxondaryo viloyati

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2023-yil 30-dekabrdagi “Surxondaryo viloyatida 2024-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyent qo‘llash to‘g‘risida” VI-81-234-8-0-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Viloyat Soliq boshqarmasining 2024-yil 8-fevraldagi 19/10-08138-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror loyihasi 2024-yil 3-apreldan 18-aprelga qadar “regulation.gov.uz” normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida muhokama uchun qo‘yilgani inobatga olinsin.

3. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2023-yil 30-dekabrdagi “Surxondaryo viloyatida 2024-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyent qo‘llash to‘g‘risida” VI-81-234-8-0-K/23-sonli qarorining 1-ilovasi bekor qilinsin hamda ilovaga muvofiq qayta tasdiqlansin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Sessiya raisi CHORIYEV ABDURAIM RAVSHANOVICH

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 24-apreldagi
VI-83-84-8-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyatida 2024-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solishda minimal qiymatga qo‘llaniladigan koeffitsiyent MOQDORI

№	Hudud nomi	Qo‘llaniladigan koeffitsiyent miqdori
1	Termiz shahri	1,00
2	Angor tumani	1,00
3	Oltinsoy tumani	0,85
4	Boysun tumani	0,85
5	Muzrabot tumani	0,95
6	Denov tumani	1,00
7	Jarqo‘rg‘on tumani	1,00
8	Qumqo‘rg‘on tumani	0,95
9	Qiziriq tumani	0,85
10	Sariosiyo tumani	0,95
11	Termiz tumani	0,95
12	Sherobod tumani	0,95
13	Sho‘rchi tumani	1,00
14	Uzun tumani	0,85
15	Bandixon tumani	0,85

Mazkur koeffitsiyentlar yirik soliq to‘lovchi korxonalarga tatbiq etilmaydi.